

Yan Amos Komenskiy buyuk pedagog olim

Ruxshona Azizbek-qizi Toshpo'latova
Ilmiy maslahatchi: M.M.Mirzakarimova
Andijon davlat chet tillari instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk pedagog olim Yan Amon Komenskiy ning hayoti va ijodi,uning pedagogika fani hamda ta'lim tizimi rivojiga qo'shgan hissasi yortiliadi. Shuningdek, mutafakkirning mashhur "Buyuk didaktika" asarida ilgari surilgan didaktik tamoyillarning bugungi zamonaviy ta'lim jarayonidagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Komenskiy, buyuk didaktika, ta'limi tizimi, tarbiya, pedagog, pedagogika fani, didaktika, olim, gumanist, mutafakkir

Jan Amos Komensky, a great pedagogical scientist

Rukhshona Azizbek-kizi Toshpulatova
Scientific advisor: M.M.Mirzakarimova
Andijan State Institute of Foreign Languages

Abstract: This article highlights the life and work of the great pedagogical scientist Jan Amon Komensky, his contribution to the development of pedagogical science and the education system. Also, the significance of the didactic principles put forward in the thinker's famous work "Great Didactics" in today's modern educational process is analyzed.

Keywords: Komensky, great didactics, educational system, upbringing, pedagogue, pedagogical science, didactics, scientist, humanist, thinker

Pedagogika - bu insonni har tamonlama yetuk, bilimli, va ma'naviy barkamol shaxs qilib tarbiyalashga xizmat qiluvchi fan bo'lib u ta'lim va tarbiya jarayonlarini ilmiy asosda tashkil etishni ko'zda tutadi. Jamiyatning ijtimoiy madaniy ma'naviy rivoji tizimining qay darajada samarali tashkil etilganiga bevositda bo'g'liq. Shu sababli ta'limni takomillashtirish, o'qitish metodlarni rivojlantirish va pedagogika jarayonni tizimli yo'lga qo'yish barcha davrlarda dolzarb masala bo'lib kelgan.

Pedagogika tarixi davomida bu masalalarga ilmiy yechim bergan buyuk olimlar yetishib chiqqan. Ana shunday yirik pedagog olimlardan biri Yan Amon Komenskiy hisoblanadi. U ta'limni umumiy, uzluksiz va ommabop jarayon sifatida talqin etib, pedagogika fanining ilmiy asoslarni yaratgan. Komenskiyning pedagogik qarashlari

va ilmiy merosi bugungi kunda ta'lim tizimini rivojlantirishda ham muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Qishloq nomidan Komenskiy familiyasi ketdi. Otasi Chexiya (Bogemiya) birodarlar jamoasining a'zosi edi. 1604-yilda Komenskiyga katta baxtsizlik keldi: epidemiya uning butun oilasini olib ketdi. Yetim qolgan o'smirni qarindoshlari Gvardiya shahriga olib ketishdi. Straznitsadagi chex birodarlar jamoasining maktabi, juda yaxshi obro'ga ega edi. Bu yerda u katta ish qobiliyatini topdi. Ko'pgina chexlar bu yerda qardoshlik maktablaridan o'tib, protestantizm ruhiga singib o'qishgan.

U mashhur Heidelberg universitetida o'qishni tugatgan. Vataniga qaytganidan so'ng, Komenskiy Perevdagi maktabni boshqarishni o'z zimmasiga oldi, birozdan keyin uni jamoa Fulnekda protestant va'zgo'yi etib tayinladi va u yerda birodarlik maktabini ham boshqargan. Shu vaqtdan boshlab Komenskiy hayotida yangi bosqich boshlandi. Tinch va baxtli hayot kechiradi. 1628-yilda chex xalqi bilan birga Po'lishaning Leshno shahriga ko'chib, bu shaharda ham qardoshlik maktabini ochib, o'qituvchi bo'lib ishlaydi, o'ziga olamshumul shuhrat keltirgan "Buyuk didaktika" va "Onalar maktabi" asarlarini nashr qildiradi.

Y.A.Komenskiy (1592-1670) pedagogikasi jahon pedagogika tarixida muhim o'rin tutadi. Komenskiyning "Buyuk didaktika" asari ta'lim jarayonini tizimli va ilmiy asosda tashkil etishning dastlabki namunasi sifatida e'tirof etiladi. U ta'lim-tarbiya jarayonida ko'rgazmalilik, ketma-ketlik, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish kabi tamoyillarni ilgari surgan. Yan Amos Komenskiy pedagogika fanining rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk mutafakkir sifatida ta'limni inson hayotidagi eng muhim jarayon deb hisoblagan. Uning pedagogik qarashlari ta'limning hammabopligi, izchilligi va tizimliliigi g'oyalariga asoslanadi. Komenskiy har bir inson, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, ta'lim olish huquqiga ega bo'lishi kerakligini ta'kidlab, umumiy ta'lim g'oyasini ilgari surgan. Olimning fikricha, o'qitish jarayoni tabiiy rivojlanish qonunlariga mos holda tashkil etilishi lozim. Shu sababli u "oddiydan murakkabga", "yaqindan uzoqqa", "ma'lumdan noma'lumga" kabi didaktik tamoyillarni ishlab chiqqan. Bu tamoyillar o'quvchilarning bilimni ongli va mustahkam o'zlashtirishiga xizmat qiladi. Komenskiy ta'lim jarayonida ko'rgazmalilikka alohida e'tibor qaratib, bilimni faqat eshitish orqali emas, balki ko'rish va amaliy faoliyat orqali berish samaraliroq ekanini asoslab bergan. Shuningdek, Komenskiy o'qituvchini ta'lim-tarbiya jarayonining yetakchi subyekti sifatida baholagan. Uning qarashlariga ko'ra, o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki o'quvchining shaxsiy rivojiga yo'naltiruvchi tarbiyachi ham bo'lishi lozim. O'qituvchining ma'naviy fazilatlar, kasbiy mahorati va mas'uliyati ta'lim sifati uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, Yan Amos Komenskiyning pedagogik qarashlari zamonaviy pedagogika fanining shakllanishida

muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilgan va bugungi ta'lim tizimida ham o'z dolzarbligini saqlab kelmoqda.

Yan Amon Komenskiy ning hayoti va pedagogik qarashlari ko'plab ilmiy manbalarda yoritilgan. Jumladan, pedagog "Buyuk pedagogika" asari uning ta'lim haqidagi assosiy go'yalarini ochib beruvchi muhim manba hisoblanadi. Komenskiy "Buyuk didaktika" asarida "o'qitish tabiiylikka bo'ysunishi, o'qitish tabiat talabiga bo'ysunishi kerak", deydi. Bolaning aqliy va ongli o'sish jarayoni tabiatdagi o'sish jarayoniga o'xshagan bo'ladi. Masalan, bog'bon daraxtlarni parvarish qiladi, uning o'sish xususiyatlarini hisobga oladi. Xuddi shunday o'qituvchi tarbiyalash qonuniyatiga bo'ysinadi. Tabiiylik prinsipida kishini tabiatning bir bo'lagi deb qarash (xudo tomonidan bunyod etilmagan) tabiat qonunlari uning o'sishiga ta'sir etadi deyish o'z davrida ilg'or fikr sanalgan. Ushbu asarda ta'limning maqsadi, mazmuni va o'qitish tamoyillari ilmiy asosda bayon etilgan. Komenskiy o'z asarlarida tarbiyaning maqsadi kishini manguqlik dunyosiga tayyorlash ekanligi va buni uch xil tarbiya orqali amalga oshirish mumkinligini uqtiradi. Bular:

1. Aqliy tarbiya.
2. Axloqiy tarbiya.
3. Diniy tarbiyalardir.

Komenskiy asarlarida tarbiya va ta'lim bir oraga qo'ygan, uning fikricha bolaning tarbiyasi yaxshi bo'lsa, ta'lim olish oson bo'ladi. Shuningdek, pedagogika tarixi bo'yicha yozilgan darslik va ilmiy maqolalarda Komenskiy zamonaviy pedagogikaning asoschisi sifatida baholanadi. Tadqiqot jarayonida Komenskiy asarlari bilan bir qatorda, zamonaviy olimlarning ilmiy qarashlar va tahlil qilinib ularning o'zaro bog'liqligi ochib berildi.

Mazkur maqolada tadqiqotni amalgam oshirish jarayoni tahlil va sintez qiyosiy tahlil ham tarixiy yondashuv metodlaridan foydalanildi. Komenskiyning barcha yozgan asarlar hozirgi kundan pedagoglar tomonidan asosiy manba bo'lib foydalanilmoqda, va albatta o'z darslarida Komenskiyning tavsiyalarda muntazam foydalanilmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Komenskiy ilgari surgan pedagogic g'oyalar bugungi ta'lim tizimi uchun ham dolzarb ahamiyatga ega. Uning ta'limga qo'shgan hissiy beqiyos. Komenskiyni sind-dars tizimi asoschisi desak ham mubolag'a bo'lmaydi. Komenskiy nafaqat umrini ilmga bag'ishlagan olim, balki, insonlarni ilmga yetaklashish yo'lida ter to'kkan jonkuyar shaxs.

Xulosa qilib aytganda, buyuk pedagog va mutafakkir" Yan Amon Komenskiy"ning hayoti va ijodi pedagogika fani uchun muhim ahamiyatga ega, chunki uning bosib o'tgan yo'llarni har bir ilm talabasi bilish dars olishi lozim. Uning ta'limga bergan ulug' merosi, mehnatlar, yozgan asarlar bildirgan fikrlar uni tarixda qolishiga zamin yaratdi. Komenskiy tomonida ilgari surilgan didaktik

tamoyillar, xususan, ko'rgazmillik, bosqichma bosqich o'rgatish, ongli o'qitish go'yalari bugungi kunda ham o'z ifodasini topmoqda. Shuningdek, uning mashhur asarlardan biri "Buyuk didaktika"da ham yozilgan bebaho ma'lumotlarni esda saqlash olsish undan kerakli xulosalarni chiqash kerak, O'rganishlar natijasi shuni ko'rsatdiki, Komenskiy dunyoda behuda yashab o'tmagani barcha insonlarni ilm olishga tarbiyasini isloh qilishga ko'mak bergani, umr mobaynida o'zi uchun emas balki atrofdagilar yaxshilanishi uchun harakat qilgani tahsinga sazovor. Komenskiyning ilmiy merosini o'rganish va amaliyotga tatbiq etish ta'lim sifatini oshirishda muhim omil bo'lib, pedagogika faning yanada rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Zero, tarixda yozilgan har bir fikr yosh avlod uchun foydalidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Komenskiy, Yan Amos. Buyuk didaktika (Didactica Magna). — Tarjima va sharhlar bilan. — Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 2015.
2. Madaminjonovna, M. M. METHODOLOGY OF EDUCATIONAL TEACHING OF GENERAL SCIENCES.
3. Muhammaddilyor Diyorbek O'G'Li Uzoqjonov, & Maxliyoxon Madaminjonovna Mirzakarimova (2025). Atrof-muhitni asrash va ekologik barqarorlikni ta'minlash muammolari. Science and Education, 6 (12), 17-21.
4. Mirzakarimova, M. (2025). O 'QUVCHILARDA TADBIRKORLIK TUSHUNCHALARINI RIVOJLANTIRISHNING DIAGNOSTIK TAHLILI. Scientific journal of the Fergana State University, (4), 1-1.
5. Mirzakarimova, M. (2025). Didactic Effectiveness of Teaching General Sciences with an Entrepreneurial Orientation. Journal of Institutional Research South East Asia, 23(3).
6. Uzoqjonov, M. D. O. G. L., & Mirzakarimova, M. M. (2025). Zamonaviy texnologiyalarning atrof-muhitga ta'siri. Science and Education, 6(11), 281-284.
7. El-Atrash, A., Zaki, S., Tousson, E., & Negm, M. (2022). Copper oxide nanoparticles induced liver and kidney toxicity in rat. Asian Journal of Biochemistry, Genetics and Molecular Biology, 12(4), 154-160.
8. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonov, M. D. O. G. L. (2025). Zamonaviy axborot texnologiyalariga o 'tishda axborot xavfsizligi. Science and Education, 6(10), 89-93.
9. МИРЗАКАРИМОВА, М. М. (2022). ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ТАДБИРКОРЛИККА ЙУНАЛТИРИБ У^ ИТИШНИНГ ДИДАКТИК АСОСЛАРИ.
10. Madaminjonovna, M., & Uzoqjonov, M. (2025). The possibilities of solving environmental problems through technology. Academic Journal of Science, Technology and Education, 1(7), 11-15.

11. Uzoqjonov, M., & Mirzakarimova, M. (2025). The role and significance of artificial intelligence in modern society. *Technical Science Integrated Research*, 1(6), 8-10.
12. Mirzakarimova, M., & Uzoqjonov, M. (2025). Information security in information-communication technologies. *Academic Journal of Science, Technology and Education*, 1(6), 8-11.
13. Умнов, Д. Г., Кариёв, А. Д., Тешабоев, А. Ю., & Мирзакаримова, М. М. (2024). Формирование финансовой грамотности и культуры потребления у старших дошкольников. *Перспективы науки и образования*, (6 (72)), 420-436.
14. MADAMINJONOVNA, M. X. T. T. Y. (2022). NALTIRIB O‘QITISHNING DIDAKTIK ASOSLARI. Nova. Pub, 1-128.
15. Madaminjonovna, M. M. (2024). ECOLOGICAL-VALEOLOGICAL CULTURE IN THE" MAN-NATURE-SOCIETY" SYSTEM. *Web of Teachers: Inderscience Research*, 2(5), 51-55.
16. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. Q. (2024). Pedagogik mahoratning shakllanishi va rivojlanishi. *Science and Education*, 5(3), 264-269.
17. Mirzakarimova, M. M. (2024). O‘qituvchining muomala madaniyati. *Science and Education*, 5(4), 278-282.
18. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. Q. (2024). “Avesto” va pedagogik fikrlar rivoji. *Science and Education*, 5(2), 224-228.
19. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. Q. (2023). Scientific and pedagogical activity of Imam al-Bukhari. *Science and Education*, 4(12), 321-324.
20. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. Q. (2023). O‘zbekistonda chiqindilarni qayta ishlash muammolarini o‘rganish va bartaraf qilish. *Science and Education*, 4(11), 78-83.
21. Mirzakarimova, M. (2023). CLIL TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA O‘QUVCHILARNING TADBIRKORLIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION METOD VA VOSITALAR. *Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi*, (6), 410-415.
22. Мирзакаримова, М. М. (2020). Умумтаълим фанларини тадбиркорликка йўналтириб ўқитиш тизими. *Science and Education*, 1(4), 97-103.
23. Мирзакаримова, М. М. (2020). ESSENTIAL COMPOSITION OF ENTREPRENEURSHIP FUNCTIONAL LITERACY. *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND TECHNICAL JOURNAL" INNOVATION TECHNICAL AND TECHNOLOGY*, 1(1), 63-65.
24. Mirzakarimova, M. M. (2022). The Necessity to Develop Students' Entrepreneurial Skills in English Classes. *Telematique.-2022.-S*, 7128-7131.

25. Мирзакаримова, М. М. (2020). Замонавий шароитларда умумтаълим фанларини тадбиркорликка йўналтириб ўқитиш тизими. *Science and Education*, 1(4), 216-222.

26. Mirzakarimova, M. (2023). EFFECTIVENESS OF STUDENTS'ENTREPRENEURIAL SKILLS DEVELOPMENT THROUGH CLIL TECHNOLOGIES. *Академические исследования в современной науке*, 2(8), 92-94.

27. Madaminjonovna, M. M. (2023). Innovative Methods and Tools for Developing Students' Entrepreneurial Skills Using CLIL Technologies. *International Journal of Human Computing Studies*, 5(3), 15-17.